

## 2024- yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar

**2024- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda asosiy kapitalga uzlashtirilgan investitsiyalar 17 389,3 mlrd. so‘m hajm o‘zlashtirilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 150,5 % ni tashkil etdi.**



### Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

	<i>Jami, mlrd. so‘m</i>	<i>O‘sish sur’ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
--	-----------------------------	-------------------------------------	--------------------------------------

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar** **17 389,3** **150,5** **100,0**


*shu jumladan:*

<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>1625,6</b>	<b>109,5</b>	<b>9,3</b>
Respublika byudjet mablag‘lari	986,3	89,1	5,6
Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish	120,2	70,6	0,7
Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag‘lari	178,5	30,6m	1,0
O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida chet el kreditlari	340,6	164,8	2,0

*davomi*


	<i>Jami, mlrd. soʻm</i>	<i>Oʼsish surʼati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
<b>Markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>15763,7</b>	<b>156,5</b>	<b>90,7</b>
Korxona mablagʼi	1964,1	162,0	11,3
Aholi mablagʼlari	708,3	90,9	4,1
Toʻgʼridan-toʻgʼri xorijiy investitsiya va kreditlar	12819,3	164,1	73,7
Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablagʼlar	272,0	100,3	1,6

**2024- yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha asosiy kapitalga investitsiyalar  
(jamiga nisbatan, % da)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning asosiy qismi ishlab chiqarish sanoatida – 8 063,8 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalar ulushining 46,4 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 1 964,4 mlrd. so'm (11,3 %), , qurilishda – 235,5 mlrd. so'm (1,3 %), ulgurji va chakana savdoda 203,6 mlrd. so'm (1,2 %), turar joy binolari qurilishida – 471,0 mlrd. so'm (2,7 %) va boshqa faoliyat turlarida 6 451,0 mlrd. so'm (37,1 %) ni tashkil etdi.

**2024- yil yanvar-sentabr oylarida moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar**  
*(jamiga nisbatan, % da)*



## 2024- yil yanvar-sentabr oylarida moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

(jamiga nisbatan, % da)




Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqorida ta'kidlab o'tilganidek ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 8 063,8 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 46,4%i o'zlashtirilgan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 1 964,4 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 11,3 % i o'zlashtirilgan.

**2024- yil yanvar-sentabr oylarida  
shahar va tumanlar kesimida  
asosiy kapitalga investitsiyalar**

	<i>Jami, mlrd. so‘m</i>	<i>O‘sish sur’ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>10 137,9</b>	<b>134,9</b>	<b>100,0</b>
Jizzax sh.	3 867,8	142,0	22,3
<b>tumanlar:</b>			
Arnasoy	401,4	2,5 m.	2,3
Baxmal	591,0	146,6	3,4
G‘allaorol	1 180,6	45,1	6,8
Sharof Rashidov	3 611,4	4,6 m.	20,8
Do‘slik	633,8	3,7 m.	3,6
Zomin	1 823,3	2,9 m.	10,5
Zarbdor	382,9	2,0 m.	2,2
Mirzacho‘l	554,9	157,4	3,2
Zafarobod	1 065,5	3,4 m.	6,1
Paxtakor	358,0	154,0	2,1
Forish	2 702,6	96,1	15,5
Yangiobod	216,2	117,2	1,2

### Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning jamiga nisbatan ulushi




Asosiy kapitalga sarflangan investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari quyidagi shahar va tumanda kuzatilgan: Jizzax shahrida – 142,0 % (yoki 3 867,8 mlrd. so'm), Do'stlik tumanida - 3,7 m. % (633,8 mlrd. so'm), Sh.Rashidov tumanda – 4,6 m. % (3 611,4 mlrd. so'm) Zafarobod tumanida 3,4 m. % (1 065,5 mlrd. so'm), Zomin tumanida 2,9 m.% (1 823,3 mlrd. so'm).

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi**


	<i>Jami, mlrd. so‘m</i>	<i>Shu jumladan: mlrd. so‘m</i>	
		<i>Davlat</i>	<i>Nodavlat</i>
<b>Jami investitsiyalar</b>	<b>17 389,3</b>	<b>1 339,9</b>	<b>16 049,4</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Qurilish-montaj ishlari	6 092,9	928,9	5 164,0
Mashina, uskunalar va xo‘jalik jihozlari	10 256,6	298,4	9 958,2
Boshqa harajatlar	1 039,8	112,6	927,2

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi,  
(jamiga nisbatan, % da)**



Viloyat bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi investitsiyalarning qariyb 59,0 % ulushi mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlariga to‘g‘ri keldi.

**2024- yil yanvar-sentabr oylarida  
Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar  
(jamiga nisbatan, % da)**



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga viloyat miqyosida xorijiy investitsiya va kreditlar 13 159,9 mlrd. so'm o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 164,1 % ni tashkil etdi.

**Asosiy kapitalga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar**

Joriy davrda 7 679,9 mlrd. so'm to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 58,3 % ulushini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 m. % ni tashkil etdi.

**Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar**
*(mlrd. so‘m)*

	<i>Jami</i>	<i>Shu jumladan:</i>		
		<i>Davlat kafolati ostida</i>	<i>To‘g‘ridan-to‘g‘ri va kreditlar</i>	<i>Boshqalar</i>
Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar	13 159,9	340,6	12 809,2	10,1

*shu jumladan:*

<i>davlat</i>	77,4	67,3	-	10,1
<i>nodavlat</i>	13 082,5	273,3	12 809,2	-

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar**
*(mlrd. so‘m)*

	<i>2023- yil yanvar-sentabr</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>	<i>2024- yil yanvar-sentabr</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
<i>Jami</i>	<b>10 566,0</b>	<b>100,0</b>	<b>17 389,3</b>	<b>100,0</b>

*Shu jumladan: iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha:*

<i>Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi</i>	900,8	8,5	1 964,3	11,3
<i>Tog‘-kon sanoati</i>	1272,7	12,0	1 039,5	6,0

*davomi*


	<i>2023- yil yanvar- sentabr</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>	<i>2024- yil yanvar- sentabr</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
<i>Ishlab chiqarish sanoati</i>	4454,2	42,2	8 063,8	46,4
<i>Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash</i>	307,8	2,9	2 872,6	16,5
<i>Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish</i>	418,6	4,0	175,7	1,0
<i>Qurilish</i>	399,3	3,8	235,5	1,4
<i>Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari, mototsikllarni ta’mirlash</i>	430,2	4,1	203,6	1,2
<i>Tashish va saqlash</i>	112,5	1,1	40,1	0,2
<i>Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar</i>	33,2	0,3	185,4	1,1
<i>Axborot va aloqa</i>	189,8	1,8	65,4	0,4
<i>Moliyaviy va sug‘urta faoliyati</i>	10,5	0,1	54,1	0,3
<i>Professional, ilmiy va texnik faoliyat</i>	322	3,0	145,9	0,8
<i>Ta’lim</i>	104,2	1,0	184,4	1,1
<i>Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish</i>	98,1	0,9	157,4	0,9

*davomi*


	<i>2023- yil yanvar- sentabr</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>	<i>2024- yil yanvar- sentabr</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
<i>Boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar joy binolari qurilishiga investitsiyalar</i>	509,4	4,8	471,0	2,7
<i>San'at, ko'ngil ochish va dam olish</i>	42,7	0,4	40,7	0,2
<i>Boshqa faoliyat turlari</i>	960,0	9,1	1 489,9	8,5

### Ijtimoiy soha obyektlari

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida umumiyl maydoni **393,8** ming kv.m bo'lgan **1 551** ta uy yoki **1 551** ta kvartira, shu jumladan qishloq joylarida **174,9** ming kv.m **693** ta uy-joy foydalanishga topshirildi.



Foydalanishga topshirilgan turar joylar  
(ming kv.m)



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida tumanlar ichida eng ko‘p foydalanishga topshirilgan turar joylar Jizzax shahri to‘g‘ri keldi, uylar soni bo‘yicha **183** tani, qurilish osti maydoni esa **61,1** ming kv.m keyingi o‘rinda Zomin tumani, uylar soni **166** tani, qurilish osti maydoni **47,1** ming kv.m.



Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi  
Aloqa telefoni:

(72) 221-53-73